

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA O'TGAN ZAMON FORMALARI

Qasimova Muqaddas Abdumutalibovna

Andijon viloyati Andijon shahar 4 - umumta'lim maktabining nemis tili o'qituvchisi

Bilamizki, har bir tilning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, turli xil zamon kategoriyalari harakatning nutq momentiga bo'lgan munosabatini bildiradi. Nutq momentiga bo'lgan munosabatiga ko'ra fe'l zamonlari o'tgan zamon (die Vergangenheit), hozirgi zamon (die Gegenwart), kelasi zamon (die Zukunft)ga bo'linadi. Nemis tilida o'tgan zamonda sodir bo'lgan voqea, hodisa, ish - harakat preterit (das Präteritum), perfekt (das Perfekt) va (das Plusquamperfekt) zamon formalari orqali beriladi. Xususan, bu uchta o'tgan zamon formalari berilgan ta'riflarni, qo'llanish qoidalarini, shuningdek, ularning yuz bergan voqea - hodisaga munosabatini, bajargan ish - harakatini, qolaversa, farqlarini bir necha ilmiy adabiyotlar bilan tanishib chiqish davomida aniqlash mumkin.

Shu ma'noda, o'tgan zamon formalari haqida ilmiy manbalarda turli fikrlar va ta'riflar mavjud. Masalan: Metzler Lexikon Sprache va Lexikon der Sprachwissenschaft ilmiy manbalarida olimlar o'tgan zamon formalari ta'rif berishda bir - biriga o'xshash bo'lgan fikrga to'xtaganlar. Jumladan, Metzler Lexikon Sprache va Lexikon der Sprachwissenschaft manbalarida o'tgan zamon shakllar quyidagicha ta'riflanadi:

Perfekt - lotincha "perfectum" so'zidan olingan bo'lib, tugallangan degan ma'noni bildiradi. Bundan tashqari tugallangan hozirgi zamon, oldingi hozirgi zamon degan ma'nolari mavjud. Ingliz tilida bu forma "Perfect tense", fransuz tilida "Parfait" deb yuritib, fe'ldan yasalgan o'tgan zamon formasi, ya'ni Grammatik kategoriyaning bir qismi vaqt degan tushunchani beradi.

Präteritum - lotincha, "praeteritum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, oldin bo'lib o'tgan hodisani ifodalaydi. Ingliz tilidapreterite, past tense, imperfect tense, fransuz tilida pre'te'rit, passe', imparfait deb yuritiladi. Fe'lli (verbal) o'tgan zamon formasi deganda tushuniladi.

Plusquamperfekt - ham lotincha "plusquamperfectum" o'tgan zamon, ingliz tilida "pastperfect", fransuz tilida "Plus - que -parfait" deb ataladi. Hamda tugallangan o'tgan zamon, oldingi o'tgan zamon degan ma'nolari ham bor. [1, 2002, 503]..

Izlanish davomida bu zamon shakllariga berilgan quyidagi ta'riflarni ko'rishimiz mumkin:

Perfekt - og'zaki nemis tilida perfekt o'tgan zamoni ifodalashda asosiy fe'l formasida, yozma matnlarda esa hikoya formasida ifodalaniladi.

U o'tgan zamonda boshlangan va hozirgi zamongacha davom etayotgan barcha jarayonlarni ifodalsh uchun foydalaniladi. Shuningdek, bu zamon shakli hikoya (ertak, qisqa hikoyalarni ifodalsh tipidir).

Präteritum - xabar berayotgan shaaxs tomonidan voqea - hodisani tasvirini ko'rsatib, xabar beruvchining o'zi boshidan kechirgan, eshitgan yoki qilgan hodisani ifodalshga xizmat qiladi.

Plusquamperfekt - (to'liq tugallangan zamon) bu zamon vaqt nuqtai - nazaridan preteritumdan oldin sodir bo'lgan hodisani ifodalashda ishlatiladi.(matnlarda oldin bo'lgan ish -harakat preteritumda beriladi) [2,].

Mirsoatov T.Z. ham yuqorida berilgan ta'riflarni deyarli takrorlaydilar:

Perfekt - bu zamon shakli ham o'tgan zamonda sodir bo'lgan ish -harakatni ifoda etadi.

Präteritum - harakatning nutq momentigacha bajarilganini aniq, qat'iy tarzda ifodalaydi. Bu harakat odatda, so'zlovchi o'zi ko'rgan, bilgan harakat bo'ladi.

Plusquamperfekt - nemis tilida o'tgan zamonda bo'lgan ikki ish - harakatni ifoda etsihda ilgari ro'y bergan ish - harakat plusquamperfekt bilan, undan keyin sodir bo'lgan ish - harakat esa preterit bilan ifoda etiladi. Bunda plusquamperfekt preteritga ko'ra nisbiy zamon formasi hisoblanadi. [3, 1974, 47-bet]..

Kundalik hayotda ishlatayotgan barcha so'zlar albatta biror bir harakatga qarab namoyon bo'ladi. Bu so'zlar yordamida harakatning aniq bajarilish vaqti ko'rsatiladi. Ma'lumki, harakat vaqt tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Bu so'zlarni bir - biridan ajratish biroz mushkul. Bu esa o'z - o'zidan shuni ko'rsatadiki, harakat ma'nosini bildiruvchi so'z - fe'l so'z turkumiga borib taqaladi.

Fe'l bildirgan harakat obyektiv vaqtning tildagi ifodasi bo'lganidek, fe'llardagi zamon ham harakatning bajarilishi bilan vaqtning tildagi ifodasidir [4, 1975, 475-bet]... Shuningdek, fe'l harakat zamon tushunchalari bir - birini to'ldirib turuvchi vositalardir. Grammatik zamon kategoriyasi harakatning nutq vositasiga munosabatini ifodalaydi. Nutq mohiyati ham subyektiv tomondan belgilanadigan qandaydir vaqt bo'lagi bo'lmay, obyektiv zamon (vaqt) ning so'zlovchi gapi, so'zi (nutqi) tog'ri kelgan bo'lagidir, ya'ni so'zlash nutq ham harakat hisoblanadi va uning bajarilishi obyektiv obyektiv vaqtning biror qismga to'g'ri keladi.

Nutq momentiga bo'lgan holatiga, munosabatiga ko'ra turli xil fe'l zamonlariga ajratiladi. Xususan, tilshunoslar Tursunov U, Muxtorov A. lar harakatning bajarilish vaqti bilan nutq payti orasidagi munosabatiga qarab, fe'lning uch zamonini ilgari bajarilgan harakatni (o'tgan zamon), nutq payti bilan bir vaqtda bajarilayotgan harakatni (hozirgi zamon), nutq paytidan keyin bajariladigan harakatni (kelasi zamon) anlatadi.

Nutq paytidan ilgari bajarilgan harakatni ifodalovchi fe'lning o'tgan zamon formasi - nutq paytidan oldin bajarilgan harakat fe'lning o'tgan zamon shaklidir [5, 1992, 332-bet].. deb ta'kidlaydi Tursunov. U va Muxtorov A.lar.

Ilmiy ishni yozish jarayonida bu ikki til solishtirildi va shunisi ma'lum bo'ldiki, nemis tilidagi fe'llarda so'zning o'zagi o'zgaruvchi, ya'ni flektierende, o'zbek tilida esa so'z o'zagiga qo'shimchalar qo'shib borishi tufayli agglutierende til ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bussmann H. Lexikon der Sprachwissenschaft. Stuttgart: A.Körner Verlag. 2002. S.503.

2. von. [http : //de.wikipedia. org/wiki/Deutsche Tempusformen](http://de.wikipedia.org/wiki/Deutsche_Tempusformen).Kategorien: Deutsche Grammatik / Deutsche Sprache
3. Mirsoatov. T.Z.Nemis tili grammatikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1974. B.147.
4. Abdurahmonov F.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'qituvchi, 1991. B.287.
5. Tursunov U., Muxtarov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston, 1992. B.332
6. Erich K.H., Flämig W., Matsch W. Grundzüge einer deutschen Grammatik (von einem Autorkollektiv) - Berlin: Akademie Verlag, 1980. S.509.